

## O'ZBEK VA INGLIZ BADIY MATNLARIDA QIMMATBAHO TOSH VA MA'DAN NOMLARINING AYRIM USLUBIY XUSUSIYATLARI

*Ziyodulloyeva Sabrina Narzullo qizi*

*TerDu talabasi*

*sabrinaziyodullayeva153@gmail.com*

*Safarova Zebiniso Hasanovna*

*safarovazebiniso1@gmail.com*

*TerDu talabasi*

*Ilmiy rahbar: Babaqulova Oydin*

*TerDu o'qtuvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek badiiy matnlarida qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining qo'llanishi va ularning uslubiy xususiyatlaridagi badiiy mazmun yoki badiiy mazmunlar zanjiri – asarning bosh konsepti sifatida tahlilga tortiladi.

**Kalit so'zlar:** qimmatbaho tosh va ma'dan nomlari, badiiy matn, tilshunoslik, uslubiy xususiyatlar.

### ABSTRACT

In this article, the use of precious stone and mineral names in English and Uzbek artistic texts and their artistic content or a chain of artistic content in their stylistic features are analyzed as the main concept of the work.

**Key words:** the names of precious stones and minerals, literary text, linguistics, stylistic features.

### KIRISH

Badiiy matnlarning tilshunoslik xususiyatlari tadqiqida, birinchi o'rinda, shakl va mazmun birligi birlamchi tamoyil sifatida to'liq nazarda tutilishi lozim. Undagi har bir til hodisasiga makon va zamon bilan bog'liqlik tushunchasi birliklarini hisobga olgan holda yondashish kerak.

### ASOSIY QISM

Badiiy matn tarkibida tahlil qilinayotgan qimmatbaho tosh va ma'dan nomlarining qo'llanish xususiyatlarini aniqlashda badiiy mazmun yoki badiiy mazmunlar silsilasi – asarning g'oyasi, asosiy konsepti aniqlab olinishi maqsadga muvofiqdir.

Qatrag'a chun tarbiyat etti **sadaf**,  
El boshig'a chiqqucha topti sharaf.

Buyuk mutaffakkir Alisher Navoiyning tafakkur xazinasidan o'rin olgan quyida keltirilgan asarida Sharqda tarbiyaning shaxs kamolotidagi ahamiyati, hayot mamot masalasi sifatida yuksak baholar ekan, mineralogik birliklardan o'rinali foydalangan.

“Sadafsiz dur bo‘lmas, tikansiz – gul” deganidek, ushbu baytda qatraning gavharga aylanishi va boshga qadalish darajasiga yetishi sadafning tarbiyasi sabab ekani ifodasini topgan. Sadaf – ustoz, qatra – shogird timsoli. Sadafning tarbiyatisiz qatra hech qachon gavharga aylanmaydi. Ya’ni, ustoz ta’limini olmagan shogird kamolga yetmog‘i amri mahol. Faqat, buning uchun muayyan muddat o‘tmog‘i zarur. Gavharni qo‘liga olgan kishi uning qimmatbaho ashyoga aylanmog‘i uchun qanday jarayonlarni boshdan kechirgani xususida o‘ylab ham o‘tirmaydi. Hayotda ham shunday. Komil insonni ko‘rganda hamma havas qiladi, lekin u ana shu darajaga qanday mashaqqatlar bilan, qaysi ustoz tarbiyasi evaziga erishgani har doim ham mushohada etilavermaydi. Buyuk shoir bu bayt orqali shaxs tarbiyasida ustozning xizmati beqiyos ekaniga urg‘u beradi [1].

“And keep the **natural ruby of your cheeks**,  
When mine is blanch’d with fear”[2];

Ingliz adabiyotida ham bazi o‘xshatishlarni ilodalash uchun qimmatbaho tosh nomlariga murojaat qilinadi va bu o‘xshatishlar sifat so‘z turkumiga mansub bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan buyuk yozuvchi Shekspir qalamiga mansub asarida “ruby” ya’ni “yoqut” qimmatbaho tosh nomi birinchi misrada yonoqlar qizarishiga nisbatan qiyoslanadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, quyida tahlilga tortilgan o‘zbek va ingliz tili badiiy matnlarida qo’llanilgan tosh nomlari aksariyat hollarda ijobiy ma’noga ega bo’lib, ular tarbiya, go’zallik va hissiyotlarni uyg’otuvchi so‘z sifatida ishlatilgan.

### **ADABIYOTLAR RO’YXATI:**

1. [http://uchildiz.O'zMU professori, f.f.d. Nurboy Jabborovning “Alisher Navoiy merosi va milliy ma’naviyat” mavzusidagi ma’ruzasi](http://uchildiz.O'zMU professori, f.f.d. Nurboy Jabborovning ‘Alisher Navoiy merosi va milliy ma’naviyat’ mavzusidagi ma’ruzasi)
2. W.Shakespeare Macbeth Act 3, Scene 4,113-115